



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 5-dekabr, № 259 (8602)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA ULKAN MAS'ULIYAT DEMAKDIR



Mustaqil mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi har yilgidan ko'ra o'zgacha shukuh bilan nishonlanishi tabiiy. Zero, joriy yilda yangi tahrirdagi Asosiy Qonun umumxalq referendumini natijasida qabul qilindi va milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor barcha ustuvor qoidalari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanadigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'ldik.

Qayd etish o'rinliki, konstitutsiyaviy islohot har qanday davlatdan qat'iy siyosiy iroda, jasorat, eng muhimi, yetilgan sharoitni taqozo qiladi.

Konstitutsiyani, qolaversa, uning bironta qoidasini zamon va makonning xususiyati talablariga zid ravishda o'zgartirib bo'lmaydi.



O'zbekistonda esa davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida keyingi 7 yilda amalga oshirilgan tarixiy o'zgarishlar Asosiy Qonunimizni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Bu davrda islohotlar shu qadar keng ko'lam va shiddat kasb etdiki, Konstitutsiya va qonunlardan iborat huquqiy makon ularning zalvarli yukini ko'tarolmay qoldi.

Shu bois Prezidentimiz tomonidan Konstitutsiyani tubdan isloh qilish tashabbusi ilgari surildi.

Umumxalq referendumida xalqimiz Konstitutsiyamiz loyihasiga ovoz berish barobarida yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar natijalariga ham o'zining haqqoniy bahosini muhrladi.

Zotan, ovoz berishda ishtirok etgan qariyb 17 million nafar yurtdoshimizning 90 foizdan

ziyodi referendumga qo'yilgan savolga ijobiy javob berdi.

Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, nufuzli ekspertlar davlatimiz rahbarini va u kishining timsolida butun xalqimizni tarixiy tadbirning yuksak darajada o'tgani bilan qutladi.

Bularning barchasi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'li naqadar to'g'ri tanlangani, taraqqiyotning yangi bosqichi

tarixiy ahamiyatga molikligidan dalolat.

O'z navbatida, Konstitutsiyani isloh qilish davlatimizning el-yurt saodati yo'lidagi oliy maqsadlari sari qo'yilgan navbatdagi ulkan qadamidir va yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizning kuchga kirgani barchamizning zimmamizga favqulodda yuksak mas'uliyat yukladi.



Konferensiya

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti muhim platformaga aylandi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Ostona shahrida 2023-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqotida Qozog'iston Respublikasining raisligi yakunlari bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

Anjuman ishida Markaziy Osiyo parlamentlari vakillari, BMTning Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi direktori, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, davlat organlari, xalqaro va nodavlat tashkilotlar xodimlari, xalqaro ekspertlar qatnashdi.

Tadbir doirasida Markaziy Osiyo mintaqasida gender zo'ravonlikka qarshi kurashish va ayollar huquqlarini himoya qilishda parlamentlar va fuqarolik jamiyati o'ri, mintaqada xotin-qizlar uchun qonun ustuvorligi kabi mavzular muhokama qilindi.

Yig'ilishda so'zga chiqqan Oliy Majlis Senati Raisi mintaqa davlatlarining so'nggi uch yildagi faol hamkorligi va mustarak faoliyati Muloqot muhim maydonga aylanganidan dalolat ekanini ta'kidladi.

Bizning platformamiz gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yagona tuzilmaga aylandi. Bu ishtirokchi mamlakatlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirdi va butun mintaqamiz uchun umumiy bo'lgan dolzarb masalalarni birgalikda muhokama qilish imkonini berdi. Biz bilan birgalikda xotin-qizlarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ham faollashdi. Ularning bugungi tadbir ishida keng ishtirok etishi mintaqada xotin-qizlarni birlashtirishda yuqori darajaga erishilganidan dalolatdir, — dedi Senat Raisi.

Yig'ilishda kun tartibidagi ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga barham berish, mintaqada xotin-qizlar uchun qonun ustuvorligini ta'minlash kabi masalalarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, Muloqot doirasida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yuzasidan fikrlashildi.

Muloqotda raislik muddati bir yil bo'lgani bois 2024-yilda uni boshqa davlatga o'tkazish masalasi ham ko'rib chiqildi va raislik Qirg'iz Respublikasiga o'tdi.

Eslatib o'tamiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti mintaqa parlamentlari ayol a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashda muhim platformadir. Muloqot BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi, BMT Taraqqiyot dasturi va "BMT-Ayollar" tashkiloti ko'magida tuzilgan bo'lib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Muloqot rasman 2020-yil dekabr oyida faoliyat boshlagan. 2021-yilda O'zbekiston, 2022-yilda esa Turkmaniston Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqotiga raislik qilgan.

"Xalq so'zi".

BIRDAMLIK — IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHNING SAMARALI YO'LI

Bugun insoniyat global iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ekologik muammolar avj olayotgan murakkab bir davrda yashamoqda. Iqlim o'zgarishlarining oldini olmaslik nafaqat mamlakatlar iqtisodiy ko'rsatkichlariga, balki ijtimoiy-siyosiy masalalariga ham tahdid solishi mumkin. Shu bois davlatimiz rahbari jahonning nufuzli minbarlaridan iqlim o'zgarishlariga moslashish hamda ekologik muammolarni hal etish uchun konstruktiv takliflarni ilgari surmoqda va bu dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilyapti.

Munosabat

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BAAning Dubay shahrida bo'lib o'tayotgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi nutqida hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurganligi, bu xavf-xatarlar, hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotganligi, Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda ekologik inqirozlarning salbiy ta'siri sezilarli darajada jiddiylashgani va bu global



Hasan PAYDOYEV olgan surat.

xavflar keng mintaqamizda o'zining xatarli nuqtasiga yetib kelayotganini aytib o'tdi.

O'z navbatida, davlatimiz rahbari o'z nutqida so'nggi yillarda yurtimizda bu sohada olib borilayotgan ijobiy ishlar va natijalar haqida to'xtalar ekan, bugun sayyoramizda iqlim o'zgarishlarining oldini olish, unga moslashish bo'yicha bir qator muhim konstruktiv takliflarni ham bayon etdi.

Birinchidan, Parij shartnomasi doirasida Iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmi

tezroq kelishishga chaqirdi. Ushbu mexanizmlar Jahon banki va xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi iqlim o'zgarishidan katta aziyat chekayotgan mamlakatlarga salmoqli yordam beradi.

Ikkinchidan, global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish adolati, shaffof va inklyuziv bo'lishi zarurligi, bunda iqlim o'zgarishidan jiddiy zarar ko'rayotgan rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari inobatga olinishi qayd etib o'tildi.



Shukuh

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

Davlatimiz rahbarining tegishli topshirig'iga binoan joylarda "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" tamoyilini joriy etishga kirishilgan edi. Prezident Administratsiyasi, Xalq qabulxonalari, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar vakillaridan tuzilgan Respublika ishchi guruhi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda Toshkent viloyatining 5 ta tumanidagi eng chekka, ijtimoiy holati og'ir mahallalar tanlab olindi.

Belgilangan vazifalar ijrosi uchun respublika budgetidan 4 milliard so'm, shuningdek, mahalliy budget hamda homiy tashkilotlar hisobidan ham yetarli darajada mablag' ajratildi.

Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 31 yilligi shodiyonasi arafasida Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi eng chekka hudud — Suvti mahallasi hududida bir nechta ijtimoiy obyektlarning qurilish-ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazildi.

...Bayram tadbiri erta tongdan "Sog'lom hayot uchun" yugurish marafoni bilan boshlandi. Mahallaning kirish qismidan start olgan marafonda 300 dan ziyod yoshlar hamda mahalla ahliga harbiy orkestr, Milliy gvardiya o'tliq harbiylari, "Vatanparvar" tashkiloti, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi maxsus texnikalari hamrohlik qildi.

To'yga to'yona bilan, deganlaridek, shu kuni mahalla fuqarolar yig'ining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Bu qishloq ahli uchun haqiqiy bayram tuhfası bo'ldi. Idora oldiga soyabon o'rnatildi, bo'sh yer maydoniga ko'chatlar qadaldi. Daraxtlar ostiga to'qsonbosti ekinlari ekildi, hudud obodonlashtirildi. Loyiha qiymati 500 million so'mdan ziyodni tashkil qiluvchi inshootda xodimlar uchun barcha sharoit yaratilgan. Bu ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolar bilan ishlash, shuningdek, idoralararo ma'lumot almashishni osonlashtiradi.

Tadbir ishtirokchilarining keyingi manzili — yangidan

barpo qilingan "Suvti" MFYdagi tibbiyot punkti bo'ldi. Uzunligi 12, eni 6 metrni tashkil qiluvchi inshoot yengil konstruksiyadan qurilgan bo'lib, unda aholiga tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, kasalliklar profilaktikasi va davolash — birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun barcha qulaylik yaratilgan. E'tiborli jihati shundaki, binoning bir qismida mo'jazzina kutubxona tashkil qilingan hamda badiiy adabiyotlar bilan to'dirilgan. Yoshlarning sevimli hududiga aylangan ziyo maskanida kitobxon o'quvchilar mehmonlarga she'rlar o'qidi, o'zlarining iqtidorlarini namoyish qildi.

Bayram tadbiri "Yashil makon"



O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

AEXA BOSHQARUVCHILAR KENGASHI O'ZBEKISTONNING BESHTA MILLIY LOYIHASINI TASDIQLADI

Venada Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (AEXA) Boshqaruvchilar kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiya kun tartibidan AEXAning texnik hamkorlik sohasidagi faoliyatini ko'rib chiqish va 2024-2025-yillarga mo'ljallangan yangi texnik hamkorlik dasturini tasdiqlash masalalari o'rin oldi.

Hamkorlik

AEXA Boshqaruvchilar kengashi texnik hamkorlik dasturini tasdiqladi, unga ko'ra O'zbekistonning beshta yangi milliy loyihasi yangi siklda amalga oshiriladi. Ulardan uchta loyiha yaratilayotgan atom sanoati infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha milliy salohiyatni oshirish ("O'zatom" agentligi), atom energetikasini samarali tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash ("O'zsanoatkontexnazorat"), shuningdek, yadroviy xavfsizlik, O'zbekiston tadqiqot yadro reaktorining foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish va samarali foydalanishga (Fanlar akademiyasi) qaratilgan.

To'rtinchi loyiha — Suv resurslari va barqaror izotoplardan foydalangan holda ifloslanish manbalarini monitoring qilish uchun barqaror izotop laboratoriyasini tashkil etishni nazarda tutadi. U Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

"Saratonni davolashda radiatsiyaviy tibbiyotni kengaytirish va mustahkamlash" deb nomlangan beshinchi loyiha O'zbekistonda ilg'or va yuqori sifatli nur terapiyasi, diagnostik radiologiya va boshqa yadro tibbiyoti texnologiyalarini joriy etish orqali saraton kasalligidan o'lim darajasini kamaytirishni nazarda tutadi. Loyiha tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, saratonning turli turlarini tashxislash va davolash bo'yicha milliy tavsiyalarni ishlab chiqish, tibbiyot xodimlarini keng qamrovli tayyorlashni nazarda tutadi.

AEXA Boshqaruvchilar kengashi a'zolari O'zbekiston doimiy vakili, elchi Baxtiyor Ibragimovning nutqini tinglab, respublikaning agentlik va Texnik kooperatsiya departamenti bilan ijobiy hamkorligi qayd etildi. Ular agentlik va Texnik kooperatsiya departamentiga mamlakat yadro sanoatini rivojlantirish uchun minnatdorlik bildirishdi. Shuningdek, AEXAning yadroviy texnologiyalardan tinch maqsadlarda foydalanishga qaratilgan yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, hamkorlikni yanada rivojlantirishga qiziqish tasdiqlandi.

"Dunyo" AA.
Vena

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

STRATEGIK MAQSADLAR, HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR POYDEVORI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixiga bag'ishlangan arxiv hujjatlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

"Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi" degan bosh g'oya asosida tashkil etilgan mazkur ko'rgazmada deputatlar, senatorlar, Konstitutsiyaviy sud, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Parlament tadqiqotlari instituti va ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda xorijiy davlatlar diplomatik korpuslari vakillari qatnashdi.

Mazkur ko'rgazmada Bosh qomusimizning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishi tarixi, shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishiga oid yuzga yaqin eksponatlar o'rin olgan.

Prezidentimizning shu yil 16-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratgani alohida qayd etildi.



YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA ULKAN MAS'ULIYAT DEMAKDIR



Bu hujjatning ustuvor qoidalari asosida tamomila yangicha qiyofa va mohiyat kasb etib borayotgan jamiyatda, ulug'vor maqsadlar ko'zlanayotgan sharoitda kechagi dunyoqarash, yondashuv va munosabat bilan yashab, ishlab bo'lmasiligini yanada chuqur his qilmoqdamiz.

Davlatimiz rahbarining yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlarga oid 2023-yil 8-maydagi Farmonida belgilangan, umuman olganda, ushbu Konstitutsiyaning o'zi ham taqozo etadigan vazifalar ijrosiga shu nuqtayi nazardan yondashmoqdamiz.

Jumladan, Farmon bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining uchinchi yo'nalishi — huquqiy davlat prinsipi asosida inson qadriini ulug'lash siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarish, uining huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash bo'yicha amaliy ishlar boshlandi.

Bunda asosiy e'tibor Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llanilishga qaratilmoqda.

Zotan, qayd etilgan dasturda ko'zda tutilgan qonun hujjatlarini ishlab chiqib, amalga kiritish uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Konstitutsiya normalari esa joriy yil 1-maydan kuchga kirdi.

Binobarin, insonning huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash bo'yicha yangi normalarni amaliyotda bevosita o'sha kunning o'zidan boshlab qo'llashga to'g'ri keldi. Xususan, Konstitutsiya hamda dasturga muvofiq uy-joyda tintuv o'tkazish, shaxsning telefon so'zlashuvlari va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotlarni olish faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan amalga oshirilishi belgilandi.

Bosh prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish va sud organlari vakillari ishtirokida ushbu muhim qoidalarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga, avvalambor, uni qo'llashda konstitutsiyaning tamoyillarga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Konstitutsiya normalarining mazmun-mohiyatini sud va huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlariga tushuntirish bo'yicha o'quv kursi moduli doirasida vazirlik va idoralarning qariyb 2 ming 500 nafardan ortiq xodimlari o'qitilishi tashkil qilindi. Bu boradagi tadbirlarning muntazam ravishda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri, so'zsiz va samarali qo'llashda Oliy sud Plenumining joriy yil 23-iyun kuni qabul qilingan "Odisudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Zotan, Bosh prokuratura hamda boshqa tuzilmalar takliflari asosida ishlab chiqilgan mazkur qarordagi tushuntirishlar nafaqat sudlar, balki huquq-tartibot, nazorat organlari,

vazirlik va idoralar, umuman olganda, barcha huquqni qo'llovchilar tomonidan Konstitutsiya normalarini qo'llash jarayonida inson huquqlari, erkinliklari, davlat hamda jamiyat manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsiya qoidalardan kelib chiqib, inson huquq va erkinliklarini so'zsiz ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish, ularni byurokratik to'siqlarsiz, tezkor ravishda muhokamalardan o'tkazishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi parlament muhokamasiga kiritish uchun tayyor holga keltirildi. Ushbu loyiha 5 ta qonun va 2 ta kodeksni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinni ki, barcha soha va tarmoqlar qatori prokuratura organlari faoliyatining ham yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida takomillashayotgani qisqa muddatda o'z samaralarini bera boshladi. Bunda joriy yilning 15-iyul kuni Bosh prokuratura hay'atining kengaytirilgan majlisida prokuratura organlarining yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarini belgilab olganimiz, faoliyatning har bir yo'nalishida tezkor ravishda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar yuzasidan mutasaddilarga aniq ko'rsatmalar berilgan, ularning ijrosi yuzasidan kundalik nazorat o'rnatilgani muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Buni birgina inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini amalda ta'minlash, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, qonunlar ijrosini so'zsiz ro'yobga chiqarish borasidagi ishlar natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar, ularning ijobiy tomonga keskin o'zgarganida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, prokuratura organlari tomonidan joriy yilning 10 oyida fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'rig'lanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida qariyb 28 mingta tekshirish o'tkazilib, natijasi bo'yicha jami 134 mingtaga yaqin prokuror nazorati hujjatlari qo'llanildi. Eng muhimi, 321 ming nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklandi.

Prokuror tekshirishlari va dastlabki tergov davomida fuqarolar, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 2,3 trln. so'mlik zararning undirilishi ta'minlandi.

Voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasi va ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish ishlari ham yangi bosqichga ko'tarildi. Shu maqsadda 9 mingga yaqin targ'ibot tadbirlari o'tkazildi, qayd etilgan yo'nalishda qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan 13,2 ming nafardan ziyod shaxslar javobgarlikka tortildi, 5,2 mlrd. so'm zarar ixtiyoriy undirildi.

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash, tezkor-qidiruv va tergov faoliyatini muvofiqlashtirish sohasidagi faoliyat ham takomillashib bormoqda. Bu boradagi dolzarb muammolar va yechimtalab masalalarni o'z vaqtida hal etish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 380 dan ziyod muvofiqlashtiruvchi kengashlari o'tkazildi.

Shu o'rinda jinoyatchilik, jumladan, korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha

davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida yangicha va samarali mexanizmlar joriy etilayotganini aytish joiz.

Birgina misol: har bir soha, tarmoq, vazirlik yoki idora tizimida korruptsiyaga sharoit yaratayotgan sabablar, omillar va boshqa jihatlar ana shu vazirlik hamda idoraning o'zida mutasaddilar ishtirokida batafsil muhokama qilimoqda, mavjud muammolar, kamchiliklar va bularga yo'l qo'yganlarning faoliyatiga xolis baho berilmoqda. Bunday amaliyot, bir tomondan, jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta'minlashga, boshqa jihatdan esa jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Sudlarda jinoyi, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar ko'rilishida fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sudlarda qariyb 80 mingta ishning ko'rilishida prokuror ishtiroki ta'minlandi.

“Umumxalq referendumida xalqimiz Konstitutsiyamiz loyihasiga ovoz berish barobarida yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar natijalariga ham o'zining haqqoniy bahosini muhrladi. Zotan, ovoz berishda ishtirok etgan qariyb 17 million nafar yurtdoshimizning 90 foizdan ziyodi referendumga qo'yilgan savolga ijobiy javob berdi.”

Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalarni hal etish, aholini tashvishga solayotgan muammolarni bartaraf qilishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Joriy yilning 10 oyida kelib tushgan jami 388 mingdan ziyod murojaatlarning 215 mingtasi bevosita prokuratura organlarida ko'rib chiqilib, 287 ming nafar fuqaro qabul qilindi.

Natijada 41 ming nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklandi. Bundan tashqari, Bosh prokuraturaning "Ishonch telefoni"ga kelib tushgan 91 mingga yaqin murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni ham hal etish choralari ko'riladi.

Shuni alohida aytish kerakki, Konstitutsiya normalarini qo'llashga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlar ko'p vaqtdan buyon dolzarb bo'lib turgan va aholini tashvishga solayotgan muammolar yechimini topishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, kuz-qish mavsumida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash maqsadida qisqa muddatda prokuratura organlari aralashuvi natijasida 300 ga yaqin jiddiy muammolar bartaraf etilishiga erishildi.

Jumladan, tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi va issiqlik tarmoqlari barpo etildi, gaz taqsimlash, transformator punktlari, suv nasoslari hamda qozonxonalar yangilandi, ko'p xonadonli uylar va ularning muhandislik-kommunikatsiya

tarmoqlari ta'mirlandi.

Ko'mir mahsulotlarini joylarga barqaror yetkazib berishni ta'minlash maqsadida Bosh prokuraturada Respublika shtabi va prokurorlar ishtirokidagi hududiy ishchi guruhlar tashkil etildi.

Ko'mirni talon-toroj qilishning oldini olish maqsadida hududiy ombor va mavsumiy shoxobchalarga prokuratura va boshqa tuzilmalar vakillari birlashtirildi.

Talon-toroj ehtimoli mavjud bo'lgan temir yo'l bekatlari aniqlanib, ko'mirning iste'molchilarga xavfsiz va to'liq yetkazib berilishini ta'minlash uchun mazkur bekatlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari mas'ul etib belgilandi va patrul avtomashinalari ajratildi. Natijada bugungi kunda barcha iste'molchiga ko'mirni o'z vaqtida va yetarli hajmda yetkazish imkoniyati yaratildi.

Qurilish sohasida qonuniyligni ta'minlash borasidagi ishlar

ham yangicha talablar asosida takomillashtirilmoqda.

Prokuratura organlarida joriy etilgan "Byudjet nazorati" elektron dasturini Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining tegishli tizimlari bilan integratsiya qilish orqali obyektlarning loyihasini ishlab chiqishdan boshlab, u foydalanishga topshirilgunga qadar barcha jarayonlar bo'yicha "tuman — viloyat — respublika" darajasida onlayn monitoring yo'lga qo'yildi.

Internetda ochilgan maxsus kanal va shtablarda ishga tushirilgan "ochiq telefon" orqali keng jamoatchilik uchun dasturlar ijrosining borishini muhokama qilish imkoni yaratildi.

Tizimli kamchiliklar omillarini bartaraf etishga qaratilgan takliflar asosida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan noxolis baholash mezonlari bekor qilindi, 46 mingdan ziyod pudratchi tashkilotlar qayta saralanib, ularning zarur salohiyatga ega bo'lmagan 29 mingtasi reyting ro'yxatidan chiqarildi. Puduratchini tanlash jarayonida xarid komissiyasining ishtiroki ilk marotaba to'liq bekor qilindi.

Ilgari jamoatchilik uchun yopiq bo'lgan va noroziliklar keltirib chiqargan loyiha hamda pudrat tashkilotlarining reyting ballari va ularni shakllantirgan ko'rsatkichlar oshkora yuritila boshlandi.

Natijada birgina joriy yilgi davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarda qimmat va asossiz hisoblangan 2 trln. 566,6 mlrd. so'mlik qiymat

maqbullashtirilib, budjet mablag'lari asossiz sarflanishining oldi olindi, 22,2 mlrd. so'mlik sifatsiz ishlar va 15,3 mlrd. so'mlik qo'shib yozish holatlari joyida bartaraf etildi.

Ma'lumki, global iqlim o'zgarishlari, havo sifatining pasayishi va Orol dengizining qurishi bilan bog'liq vaziyatning keskin tus olishi sababli ekologik masalalar Asosiy Qonunimizdan keng o'rin oldi.

Binobarin, Prezidentimizning joriy yil 31-maydagi Farmoniga asosan prokuratura organlarining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratga mas'ul bo'lgan tarmog'i yo'lga qo'yildi.

Yurti obod qilish niyati bilan yashash, bu niyat ro'yobi yo'lida borini berish xalqimizning azaliy hayot tarzi, ezgu qadriyatidir. Bu qadriyatning taraqqiyotimizning yangi bosqichida yangi to'lqin, yangi kuch va xayrli maqsad bilan qayta tiklangani yangi O'zbekistonni barpo etishdek oliy maqsadimizga mosdir.

Binobarin, prokuratura organlari ham savobli va ayni paytda har jihatdan foydali bo'lgan bu ishlardan chetda turmaydi, albatta.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 30-dekabrda Farmoni bilan tasdiqlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosi doimiy nazoratimizda. Jumladan, daraxtlar kesilishiga e'lon qilingan moratoriy talablariga rioya etilishini qat'iyl nazorat qilyapmiz.

Ekologiya bilan bog'liq masalalarga yechim topishda aholi, davlat va nodavlat tuzilmalarga, keng jamoatchilikka amaliy yordam ko'rsatyapmiz. Biroq, eng muhimi, bu kabi loyihalar, tashabbuslar ijrosiga bevosita hissa qo'shish ham ustuvor vazifamizdir.

Shu bois birgina joriy kuz mavsumida 550 ming tup daraxtni bevosita prokurorlar tomonidan ekishni rejalashtirdik va shu kunga qadar 456 ming tupdan ziyod daraxtlar ekildi. Mamlakatimizning barcha hududida "Prokuror bog'lari" barpo etilmoqda...

Prokurorlar rahbarlik qiladigan 2-sektordagi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ehtiyojmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ishsizlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy va boshqa obyektlardagi muammolarni bartaraf etish, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi ko'plab yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prokurorlar sektorlaridagi tegishli daftarlarga kiritilgan 163 ming 300 ta ehtiyojmand oilaga, 321 ming 400 nafar fuqaroga zarur amaliy yordamlar ko'rsatildi.

177 ming nafardan ziyod ehtiyojmand oilaning ishsiz a'zolari bandligi ta'minlandi, 8 ming nafardan ziyod yoshlar istiqbolli ish o'rinalariga doimiy ishga joylashtirildi, 2,2 ming nafarga yaqin yoshlarga kredit, 5,6 ming nafariga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishi uchun yer, 12 ming nafariga subsidiya ajratilishida ko'mak berildi.

Bundan tashqari, 86 ming nafardan ziyod xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi, 13,6 ming nafardan ortig'i kasb-hunarga o'rgatildi, ular tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida

10 ming 605 nafariga qariyb 100 milliard so'mlik kredit ajratilishiga amaliy yordam ko'rsatildi.

Prokurorlar tomonidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylk va jinoyatchilikka qarshi kurashish ahvoli haqida axborotlar muntazam kiritilmoqda. Aholi va ijrochilarga yangi qabul qilingan qonunlarning mohiyati yetkazilmoqda, ushbu yo'nalishda olim va ekspertlar, vakillik organlari, mahalla faollari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan ham keng foydalanilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 31-maydagi qarori bilan Prokuratura organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi qabul qilindi va shu tariqa tizimimizda bu ishlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Ayniqsa, inson qadriini ulug'lash, Vatanimiz ozodligi yo'lida jon fido etgan tizim xodimlarining hayoti va faoliyati haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni yosh avlodga yetkazish orqali ularni el-yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Afsuski, sho'rolar qatag'onlarining dahshatli davrida minglab begunohlar qatorida prokuratura tizimi vakillari ham ko'plab musibatlarga duchor bo'ldi. Ori va nomusini har narsadan ustun qo'yib, nohaqliklarga qarshi borgan, qat'iylat ko'rsatgan, chin ma'noda dovyurak va vatanparvar mahalliy xodimlarning 150 nafariga jinoyat ishi qo'zg'atilgan, 30 nafari esa otib tashlangan. Bu ma'lumotlar faqat qisqa muddatda aniqlanganidir.

Nohaqlik azoblarini tortgan tizimimiz xodimlarining xotirasini abadiylashtirish, ularning jasoratini yosh avlodga yetkazish bo'yicha bugun aniq ishlarni boshladik. Xususan, joriy yil 11-sentabrda qabul qilingan farmoyish bilan qatag'on qurboni bo'lgan prokuratura xodimlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi", unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Bosh prokuror o'rinbosari rahbarligida ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi.

Ishchi guruhga prokuratura xodimlaridan tashqari, turli ilmiy muassasalar, muzeylar va boshqa tuzilmalar vakillari kiritilgani muhim ahamiyatga ega...

Xulosa sifatida qayd etish joizki, fuqarolar va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, inson huquqlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, Konstitutsiya va qonunlarni muhofazalashdek sharaflil vazifalarni zimmasiga olgan prokurorlarning mas'uliyati endi har qachongidan ham kuchaydi.

Ta'bir joiz bo'lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning amalga kiritilishi bilan prokuratura organlari ham yangi va mas'uliyatli davrga qadam qo'ydi.

Davlatimiz rahbarining e'tibor va tashabbusi samarasi o'laroq, har jihatdan takomillashib borayotgan prokuratura tizimi davr oldiga qo'yayotgan ustuvor vazifalarni sharaf bilan ado etish uchun barcha imkoniyatga egadir.

Nig'matilla YO'LDOSHEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

YORQIN ISTIQBOLNI BELGILAB BERUVCHI MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS

Jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslari, avvalo, Konstitutsiya orqali mustahkamlanadi. Yuridik mazmun-mohiyatga ega ushbu huquqiy hujjat davlatlarning Asosiy Qonuni sifatida butun huquqiy qonunchilik tizimlarining o'zagini tashkil qiladi.

Qolaversa, Konstitutsiya xalq irodasi, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirib, unda mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqloq g'oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asoslari bilan sug'orilib, xalqimizning istiqbolga, erkinlikka bo'lgan intilishini, milliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, aytish mumkin, ki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya umumxalq muhokamasi davomida tushgan ko'p sonli takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi. U xalqaro standartlar, muhimi, O'zbekiston xalqining xohish-irodasi va orzu-istaklariga to'liq mos keladi.



O'tkazilgan referendumda 90 foizdan ko'p fuqarolarimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilishni yoqlab ovoz bergani, amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz qo'llab-quvvatlash bilan birga, odamlarimizning e'tang kunga ishonchini yaqqol ko'rsatib berdi. Shuningdek, jamiyat birdamligi va hamjihatligini namoyon qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizning yangi rivojlanish davrini boshladi. Qolaversa, ushbu bosh hujjat uchinchi Renessansning poydevori, desak, mubolag'a bo'lmay-

di. Bu, albatta, barchamizdan juda katta mas'uliyat hamda talabchanlikni, o'z o'rnida, javobgarlikni talab qiladi. Qomusimizda belgilangan asosiy qoidalar, normalar xalqchilligi bilan e'tiborlidir.

Asosiy Qonun Vatani taqdiri, fuqarolarimiz farovonligi, yoshlarimizning buguni va kelajagini belgilab beruvchi mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilishga to'liq ishonamiz.

Zero, amaldagi Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi. Takliflarning 60 foizdan ortig'i bevosita yoshlar tomonidan berilgani katta ahamiyatga ega. Asosiy Qonunimizning "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan 14-bobi 5 ta moddani o'z ichiga olgan bo'lib, ularda oila, ota-onalar hamda ularning farzandlari manfaatlarini bilan birga, zimmalariidagi mas'uliyat ham belgilab qo'yilgan.

Tabiiyki, davlat ham bo' borada o'z zimmasiga qator vazifalarni olgan, ya'ni u yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishiga hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishiga, sog'lig'ini saqlashga,

uy-joy, ishga joylashish, bandlik hamda dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishi alohida norma sifatida kiritilgan.

Konstitutsiyaning qonun bilan ilk marotaba uzluksiz ta'lim tizimi, uining har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifalari qatoridan joy oldi. Mazkur qoidalarining Konstitutsiya darajasida belgilanishi, bolalar bog'chasidan tortib, universitetlargacha, barcha ta'lim tashkilotlarini ular davlatniki yoki xususiy ekanligidan qat'i nazar, rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi aniq belgilab qo'yildi. Ya'ni 2017-yilga qadar oliy ta'lim muassasalarida grant o'rnlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, so'nggi olti yil ichida grantlar ko'paytirildi.

Xususan, o'tgan davrda oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foizga hamda ehti-

yojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga davlat granti ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Mazkur konstitutsiyaning qoidaning belgilanishi bo' boradagi ijobiy yo'nalish doimo saqlab qolinishi, davlat oliy ta'lim muassasalarida grant o'rnlari yo'qolmasligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning qonunga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar olib borish va o'qitish erkinligi huquqi berilishi ham quvonarlidir. Oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilangan oliy ta'lim jarayoniga tashqi aralashuvlarni cheklash, oliy ta'lim sifati hamda dunyoda raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada alohida modda yoshlar huquqlariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi.



Sirojiddin YO'HDIOY o'lgan suratlar.

Ta'kidlash joizki, ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

Ilm olish uchun mana shunday

ulkan imkoniyatlar yaratilgan bir paytda, ayniqsa, ota-onalar o'z farzandlariga to'g'ri maslahatlar berib, ularning sog'lom hamda barkamol o'sib-ulg'ayishlari, ilmiy, ma'rifati bo'lishlari uchun g'amxo'r bo'lishlari kerak va ularni bu yo'lida doimo qo'llab-quvvatlab turishlari lozim.

Zero, dunyoning obodligi, xalqning baxtu saodati ham ilm, ma'rifat bilan chambarchas bog'liq. Shu bois biz O'zbekistonning suveren, dunyoviy, ijtimoiy davlat, degan maqomidan unumli foydalanib, yoshlarni zamonaviy bilimlardan xabardor qilishimiz orqali mamlakatimiz farovonligiga erishishimiz mumkin. Bu yo'lida, albatta, qomusimiz bilan mustahkamlab qo'yilgan kafolatlar muhim o'rin tutadi.

Abdulla AKRAMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
Xalqaro hamkorlik departamenti tarkibidagi Xorijiy talabalar va almashinuv dasturlari bo'limi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Qisqa satrlarda



FRAKSIYA VA QO‘MITALARDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Konstitutsiya haftaligi” doirasida O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya hamkorligida “Konstitutsiya — ijtimoiy davlatning huquqiy asosi” mavzuida davra suhbatlari tashkil etildi.

Unda yangi tahrirdagi Konstitutsiya va uning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida fikr yuritildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligi, erkinlik va ochiqlikni ta’minlash, inson huquq va manfaatlarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimini yaratish hayotiy maqsadga aylandi. Bunda yangi tahrirda qabul qilingan Bosh qomusimiz mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasi tomonidan “Konstitutsiya — farovon hayotimiz asosi” mavzuida tadbir o‘tkazildi.

Ta’kidlanganidek, Konstitutsiya — mamlakatning Asosiy Qonuni bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning muqaddimasidan tortib, yakunlovchi qoidalariga qadar inson, uning farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik g‘oyalari singdirilgan.

Xususan, fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat mablag‘lari hisobidan olishga haqli ekani qat’iy belgilandi. Bu juda muhim ijtimoiy kafolatdir. Chunki aholining ayrim qatlamlari pulli asosda yoki xususiy shifoxonalar xizmatidan foydalanishga imkoniyati yetmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatda davlat o‘z fuqarosini kafolatlangan tibbiy xizmat bilan ta’minlash majburiyatini zimmasiga olishi kerak. Konstitutsiyadan o‘rin olgan ushbu norma aynan mazkur jihatlarni ko‘zda tutadi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalq farovonligi, yurt taraqqiyoti uchun xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya: yoshlarga ta’lim sohasida keng imkoniyatlar yaratadi” mavzuida davra suhbatlari o‘tkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotimizning turli sohalarida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish bo‘yicha strategik maqsadlar o‘z ifodasini topgani alohida ta’kidlandi.

Xususan, Bosh qomusimizda ta’lim olish huquqi va imkoniyatlari kengaytirildi, nodavlat ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlash qoidalari joriy etildi, davlat tomonidan bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich kasb-hunar ta’limi kafolatlari belgilandi, oliy ta’lim muassasalariga akademik erkinlik berildi. Bularning barchasi yosh avlod hayotini yanada yaxshilash, ularning istak va intilishlarini ro‘yobga qiyarish, zamonaviy kasb-hunarlarini bilishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbirda deputatlar, Yoshlar parlamenti a’zolari, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va talabalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga to‘xtalib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Parlament axborot markazi.

STRATEGIK MAQSADLAR, HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR POYDEVORI

Ko‘rgazmali tadbirda Asosiy Qonunimizning mazmun-mohiyati, uning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy poydevori, fuqarolar huquq va manfaatlarining ishonchli kafolati sifatidagi ahamiyati haqida batafsil so‘z yuritildi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining noyob namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz mamlakatimizda suveren demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlash, turmush farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib kelmoqda. Pirovardida o‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkorilik tobora kengayib bormoqda. Barcha darajadagi rahbarlar, jumladan, deputat va senatorlar quyib bo‘lg‘ina — mahalla darajasiga tushib, aholi bilan bevosita uchrashib, ularning muammolarini joyida hal etmoqda.

Muhim hujjatlar loyihalari, chunonchi, budget mablag‘laridan oqilona foydalanish, davlat xaridlari masalalarini muhokama qilish jarayonida keng jamoatchilik vakillari faol qatnashmoqda. Shu asosda davlat tashkilotlari va fuqarolik institutlari o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib, jamoatchilik nazorati yangi bosqichga ko‘tarildi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, davlat va jamiyat qurilishini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berganligini alohida e’tirof etdi.

Aytilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan vakillik organlari rivoji uchun yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makon yaratildi. Mamlakatimizda milliy parlamentarizm instituti faoliyati samaradorligi yanada oshirildi. Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari, shuningdek, har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas’uliyat sohalari aniq belgilandi. Ilgari Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 ta bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga asosan ularning soni 12 taga yetdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi o‘rinbosari Akmal Saidov o‘z so‘zida ta’kidlaganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat’iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyaviy sudi raisi Mirzo-Ulug‘bek Abdusalomov Konstitutsiyaning yaratilish tarixi haqida to‘xtalib, Asosiy Qonunimizda muhrlab qo‘yilgan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida keng ko‘lamli ulkan ishlar amalga oshirilganini alohida qayd etdi.

Shu bilan birga, 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda 90,21 foiz aholi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani xalqimizning birdamligi va hamijhatligini namoyon qilgan, unda xalqimizning yangi O‘zbekistonnii barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topgani aytib o‘tiladi.

Tadbirda yangi tahrirdagi Bosh qomusimiz oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qariyb 65 foizga yangilanganiga urg‘u berildi. Jumladan, uning moddalari 128 tadan 155 taga, normalari esa 275 tadan 434 taga ko‘paydi. Amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o‘zgartirishlar kiritildi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda

iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotimizning turli sohalarida keyingi yillarda ro‘yobga chiqarilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish bo‘yicha strategik maqsadlar o‘z ifodasini topdi.

Oliy Majlis Senatining Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Boriy Alixonov o‘z chiqishida ta’kidlaganidek, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik prinsiplarini hayotga tatbiq qilish g‘oyalarga asoslanadi. Bunda yurtimizda inson hayoti, erkinligi, shah’ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ustuvorlik kasb etayotgani alohida ahamiyatga ega.

Tadbirda so‘z olganlar Asosiy Qonunimizda bayon qilingan har bir yangi normajamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyoti, xalqimizning ijtimoiy hamda boshqa huquqlari himoyasi bo‘yicha yaqin va uzoq istiqbolidagi strategik maqsadlarni amalga

oshirishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidladilar. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai, degan norma asosida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetining tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgani alohida urg‘ulandi.

Asosiy Qonunimiz biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki milliy g‘urur-iftixor, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dididan qat’i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanishi qayd etildi.

Tadbir yakunida mehmonlar ko‘rgazmadagi foto va qo‘lyozmalar, parlament kutubxonasi faoliyati hamda Qonunchilik palatasi muzeyidagi eksponatlar bilan tanishdi.

“Xalq so‘zi”.

BIRDAMLIK — IQLIM O‘ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHNING SAMARALI YO‘LI

Uchinchidan, Toshkentdagi “Yashil universitet” negizida tashkil etilayotgan iqlim ilmiy forumi doirasida ilmiy almashinuvni yo‘lga qo‘yish va o‘shma tadqiqotlar o‘tkazishga chaqirdi. Yetakchi olimlar va ekspertlar ishtirokida yur degradatsiyasining oldini olish, suvdan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini kafolati ta’minlash va boshqa masalalar forumda atroflicha muhokama qilinadi.

Shuningdek, Prezidentimiz o‘z nutqida O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha umumbashariy g‘oyalarga doimo sodiqlik ekanligini, kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatimizni teran anglagan holda iqlim o‘zgarishlarining oldini olishda faqat birdamlik, keng xalqaro hamkorlik va sa’y-harakatlarni birlashtirish orqali erishish mumkinligini ta’kidladi.

Muxtasar aytganda, bugun O‘zbekiston o‘z tashabbuslari bilan butun dunyo hamjamiyatiga iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash va unga moslashish bo‘yicha amaliy tadbirlari bilan o‘rnak bo‘lmoqda. Asosiysi, dunyo buni tan olmoqda, qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Mohira XO‘JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Inklyuziv ta’lim

Maxsus maktab o‘quvchilari uchun ochiq dars o‘tkazildi

Poytaxtimizning 77-ko‘zi oqizlar maktabida “Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi” mavzuida ochiq dars o‘tkazildi.

Adliya vazirligi tomonidan uyushtirilgan ushbu ochiq dars yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini tushuntirish asnosida 3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuniga hamohang tarzda tashkil qilindi.

Tadbirda imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramay, turli sohada yuksak marralarni zabt etgan insonlar dunyoda ko‘p ekanligi, ular orasida sportchilar, mashhur san’atkor, hatto siyosiy yetakchi bo‘lgan shaxslar ham ko‘pchilikni tashkil etishi hamda ular yutuqlarining asosi — ichki olam go‘zalligida, qalb hamda ruh salomatligida ekanligi ta’kidlandi.

Qayd etilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim huquqi kafolatlariga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 50-moddasida ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi, degan muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi norma mustahkamlab qo‘yildi.

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq inklyuziv ta’lim ixtisoslashtirilgan maktablar va birinchi marotaba umumiy o‘rta maktablarda tashkil etiladi.

Unga ko‘ra, sog‘lig‘ida nuqson bo‘lgan bolalarni faqatgina ixtisoslashtirilgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir. Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan 21 231 nafardan ortiq bolalar uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritayotgani ham alohida e’tiborga molik.

Inklyuziv ta’limga oid normaning belgilanishi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya ularning jismoniy hamda aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishiga, ta’lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qiladi

va pirovardida alohida bilim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqining to‘liq amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Adliya vazirligi tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida “Maftunkor ranglar jilosi”, “Biz birgamiz”, “Mehr ulash” kabi aksiyalar mutazam o‘tkazib borilishi qayd etildi.

Ochiq dars yakunida esa “Konstitutsiya haftaligi” doirasida maktab o‘quvchilari uchun Brayl alifbosisidagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaning audio shakli joylashtirilgan disklar tuhfa qilindi.

Zero, inklyuziv, hammaga teng imkoniyat yaratilgan va e’tibor ko‘rsatilgan jamiyatda uyg‘unlik bo‘ladi, qonunlarga hurmat shakllanadi.

“Xalq so‘zi”.

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

Vazirlik va idoralar, viloyat hokimligi, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillaridan iborat mehmonlar obod xonadonlardagi sharoitlarni ko‘zdan kechirdi, tandirda yopilgan non va ko‘k chuchvaradan tanovul qildi, qishloq ahli bilan samimiy muloqot o‘tkazildi.

Olib borilgan targ‘ibot ishlari natijasida mahalladagi 250 dan ziyod oilalarning tomorqasiga to‘qsonbosti ekinlari qadaldi, tomorqa madaniyati yuksaltirildi, hokim yordamchilarining tavsiyasi asosida issiqxona qurish uchun imtiyozli kreditlar berildi.

Bu hali hammasi emas. Mahallada “Obod ko‘cha” mezonini joriy qilish bo‘yicha o‘ydim-chuqur yo‘llar ta’mirlandi, ichki ko‘chalar tekislandi, tutash maydonlar, bo‘sh yerlar, xonadonlar oldiga “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 10 ming tupdan ziyod ko‘chatlar ekildi. Jami 5 ta ichki ko‘chaning qariyb 2 kilometri shag‘allashtirildi, 220 metri beton qilindi, 3,3 kilometr piyodalar yo‘lagi qurildi.

Shuningdek, elektr ta’minoti sifatini yaxshilash maqsadida 4 kilometr havo liniyasi yangilandi, 74 ta tungi yoritish moslamasi qo‘yildi. 368 ta eski simyog‘och temir-beton ustunlariga almashtirildi. Bundan tashqari, qariyb 10 kilometr gaz tarmog‘i tartibga keltirildi, bo‘yaldi, 700 metr ichimlik suvi quvuri tortilib, suv inshooti o‘rnatildi. Tinchlik hamda Mustaqillik ko‘chalaridagi 2 ta ko‘priq yangidan bunyod etildi. Asosiysi, qisqa muddat ichida ro‘y bergan o‘zgarishlar aholini mamnun qildi.

Mahallada ishsizlikni qisqartirish maqsadida 44 nafar aholining bandligi ta’minlandi, fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida hokim yordamchisi tavsiyasi asosida 220 million so‘m imtiyozli kredit berildi.

Xullas, bugun mahalladagi har bir guzar, ko‘cha, xonadonlar oldi milliy qadriyatlarimizga mos holda tartibga keltirildi, arilqardan zilol suvlar oqayti.

Bayram tadbirining badiiy qismi mahalla markazidagi ochiq maydonda o‘tkazildi. Qishloq ahli va mehmonlar bir joyda jam bo‘ldi. Unda qayd etilganidek, hududda bajarilgan bunyodkorlik ishlari davlatimizning aholi ijtimoiy himoyasiga qaratilgan e’tibori namunasidir. Bunday xayrli tadbirlar har bir mahalla kesimida davom etishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, asosiy maqsad — xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratib berish.

Dastlab tadbir doirasida e’lon qilingan o‘ndan ortiq tanlovlarning g‘olib va sovrindorlari munosib taqdirlandi. Shuningdek, hududdagi bunyodkorlik ishlarida faollik ko‘rsatgan vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar vakillari, saxovatpesha tadbirkorlarga ko‘krak nishonlari, esdalik sovg‘alari topshirildi. Bayram tadbirining badiiy qismida Vatanni, mehr-oqibat, muhabbat, insoniylikni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar yangradi, barchaning ko‘ngliga bayramona kayfiyat ulashildi.

Rahim SHERQULOVI
("Xalq so‘zi").

“Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarlari tahririyati jamoasi tahririyatining sobiq xodimi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist
Ortiqali NOMOZOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a‘zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.
O‘zbekiston iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi jamoasi federatsiya raisi Jahongir Sarimsoqovga volidai muhtaramasi
Soniya ona ERMUHAMMAD qizining vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.
Guliston davlat universiteti jamoasi va kasaba uyushmasi raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti Iqtisodiyot kafedraslari dotsenti A. Abduravohidovga padari buzrukvori
Abdulaziz ota ABDUVOHIDOVning vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

AHOLI BILAN YUZMA-YUZ MULOQOTLAR

Avval xabar berilganidek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z saylov okruglarida bo‘lib, aholi bilan ochiq muloqotlar o‘tkazdi, mahallalar, ta’lim va tibbiyot muassasalarida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirdi.

Deputatlar — hududlarda

Xususan, quyi palata deputati Dilbar Usmonovning Toshkent viloyati Qibray tumanidagi saylovchilar bilan muloqotlari nihoyatda samarali bo‘ldi.

Joylarda o‘tgan ochiq va samimiy muloqotlar chog‘ida deputat so‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, Asosiy Qonunimizning mohiyati va ahamiyati xususida batafsil ma’lumot berdi. Shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uning ijrosini ta’minlash borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida to‘xtalib o‘tdi.

Yuzma-yuz muloqotlar davomida aholi tomonidan turli masalalarga oid ko‘tarilgan murojaatlar mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida joyiga chiqqan holda o‘rganildi va ularni hal etish choralari ko‘rildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shuhrat Sharofutdinov Farg‘ona viloyatida saylovchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlari

davomida yig‘ilganlarga qonun ijodkorligi yig‘ilishlari, yaqinda kuchga kirgan qonunlarning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot berdi.

Xususan, Beshariq tumani hokimligida “Xalq Konstitutsiyasi — xalqchil davlat poydevori” mavzuida o‘tkazilgan tadbirda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati keng tushuntirildi. Bosh qomusimiz demokratik suveren davlatimizning hurlik timsoli, millatimizning faxru iftixori, fuqarolarimiz huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati ekani qayd etildi.

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotimizning turli sohalarida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni izchil davom ettirish bo‘yicha strategik maqsadlar o‘z ifodasini topdi, — dedi deputat Sh. Sharofutdinov.

Xalq vakili, shuningdek, uchrashuvlar davomida tumanning bir qator mahallalarida bo‘lib, fuqarolar bilan yuzma-yuz muloqotga kirishdi, ularni o‘ylantirib kelayotgan masalalarni

o‘rgandi. Aksariyat murojaatlar joyida bartaraf etildi, yechimi uzoq vaqt talab qiladigan muammolar esa deputatlik nazoratiga olindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nodira Jonibekovanning Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida bo‘lib o‘tgan aholi bilan uchrashuvlari ham samarali kechdi.

Deputat muloqotlar davomida tumandagi “Ravot” mahalla fuqarolar yig‘inida “Sardoba Universal Klaster” homiyligida tashkil etilgan tikuvchilik sexi faoliyati bilan tanishdi.

Ayni chog‘da bu yerda “ayollar daftari”da ro‘yxatda turuvchi 120 nafar xotin-qizning bandligi ta’minlangan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot ichki bozorda xaridorgir.

Deputat ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishib, xotin-qizlarga keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida tushuntirishlar berdi.

Uchrashuvlar chog‘ida bir qator ta’lim muassasalarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati ham o‘rganildi.

Fuqarolar tomonidan ko‘tarilgan murojaatlarni Sardoba tumani hokimi o‘rinbosari va mas’ul tashkilot rahbarlari nazoratga oldi.

Parlament quyi palatasi deputati Zuhra

KOMPLAYENS-NAZORAT

KORRUPSIYA XAVFIDAN HIMOYA QILUVCHI ENG MAQBUL TIZIM

Hozirgi kunda dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash usullari orasida komplayens-nazorat eng maqbul va samarali tizim sifatida e'tirof etilmoqda. Korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat ilk bor AQSHda joriy qilingan bo'lib, dastlab 1906-yilda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatining sanitar sifatini nazorat qilish federal xizmatining tashkil etilishi bois vujudga kelgan. Buning natijasida o'tgan asrning 50-yillarida AQSH bozorida kuzatilgan keskin iqtisodiy o'sish, bozor ishtirokchilari bo'lgan korporatsiya va kompaniyalarda zamonaviy boshqaruv va tashkiliy madaniy shakllana boshladi. Pirovardida ushbu yirik bozor ishtirokchilari o'z boshqaruv tizimlarini shakllantirishda komplayens-nazorat tizimini joriy etish va davlat xizmatchilarining axloq kodeksini qabul qilish zaruratini yuzaga chiqardi.

Xizmat

Aytish joizki, "komplayens" tushunchasi (compliance) rozilik, muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko'rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish ma'nolarini anglatasa, komplayens-nazorat — boshqaruv a'zolari va xodimlar tomonidan amaldagi qonunchilikka rioya etilishi va boshqaruvni optimallashtirish maqsadida joriy qilinadigan qoidalar va rahbariy ko'rsatmalardir. Komplayens-nazorat so'zini o'zbek tilida "muvofiqlikni boshqarish" deb ham talqin etish mumkin.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi yirik kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi muvaffaqiyatli ishlaymoqda. Masalan, Fransiya qonunchiligida 800 ming yevrodan ortiq kapitalga ega bo'lgan davlat korxonalarida bu nazorat tizimini joriy etish bilan bog'liq majburiy normalar mavjud. Buyuk Britaniyada esa 1 mlrd. funt sterling kapitali bo'lgan davlat ulushiga ega 700 dan ortiq korxonalarda yo'lga qo'yilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo'llanilayotir. Jumladan, Buyuk Britaniyada qonunbuzilishlar aksariyat hollarda korporativ jinoyatlar va huquqni qo'llash sohasida kuzatilganligi bois ushbu nazorat tizimi homiylik, ta'lim, tabiiy resurslar, qurilish, avtomobilsozlik, moliyaviy xizmatlar, nafaqa, qo'sh, ijtimoiy himoya va boshqa sohalarida keng joriy etilgan. Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda komplayens-nazorat tizimi alohida qonun hujjati bilan tartibga solingan ham ahamiyatga molik.

Mamlakatimizda ham bu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan bo'lib, uning faoliyatida shaffoflikni ta'minlash uchun agentlik to'g'ridan-to'g'ri mamlakat Prezidentiga bo'ysunishi alohida belgilangan. Mazkur idora tomonidan davlat tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda eng muhim hisoblangan komplayens-nazorat tizimini joriy qilishning birinchi bosqichida tajriba tariqasida bir qator vazirlik va idoralar tanlab olinib, uni yo'lga qo'yish, "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish va "korrupsiyasiz soha" loyihasini tatbiq etish bo'yicha tashkiliy hamda huquqiy asoslar yaratildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu Farmoni talablaridan kelib chiqib, "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati ilk bor komplayens-nazorat tizimiga o'tib, ushbu yo'nalishda faoliyat Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti orqali amalga oshirib kelinayotir. Departament tomonidan o'tgan davr mobaynida barcha tarmoq korxonalarida ularning to'g'ridan-to'g'ri Kuzatuv kengashlariga bo'ysunuvchi (korxona ijro organidan mustaqil) komplayens-nazorat tizimi joriy etilishi va faoliyat uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarining ishlab chiqilishiga erishilganini alohida aytish joiz. Xususan, 2020-yilda "O'zavtosanoat" AJga qarashli "UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyatida



komplayens-nazorat xizmati yo'lga qo'yildi. Hozirda korxonada tashkil qilingan mazkur ichki nazorat xizmati departament tomonidan muntazam berib kelinayotgan yo'nalish va ko'rsatmalar asosida o'z faoliyati ta'sirchanligini oshirib, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirish choralarini ko'rib kelmoqda.

Avval salom, keyin intizom

Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan va Asaka avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi avtomobillar uchun dvigatellar yetkazib berayotgan "UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyati nazorat kirish punktiga kelganimizda xodimlar bizni xushhollik bilan kutib olishdi. Dastlab alohida xonada korxona ichki qoidalarini batafsil tushuntirilgan qisqa video-yo'riqnomaga qo'yib berildi. Unda korxona ichkarisida yurish-turish qoidalarini, texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi bilan bog'liq tartib, alohida belgilarning mazmuni, maxsus yo'laklardan foydalanish kabi muhim qoidalar har bir tashrif buyuruvchi uchun aniq va ravon tushuntirilgan. Muhimi, video-yo'riqnomaga bilan bevosita tanishgan

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi yirik kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi muvaffaqiyatli ishlaymoqda. Masalan, Fransiya qonunchiligida 800 ming yevrodan ortiq kapitalga ega bo'lgan davlat korxonalarida bu nazorat tizimini joriy etish bilan bog'liq majburiy normalar mavjud. Buyuk Britaniyada esa 1 mlrd. funt sterling kapitali bo'lgan davlat ulushiga ega 700 dan ortiq korxonalarda yo'lga qo'yilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo'llanilayotir.

tashrif buyuruvchida zavod hududida tartibga amal qilish qanchalik muhim va ustuvor ekanligi haqida ilk tasavvur hosil bo'lishi aniq.

Shundan so'ng biz belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tdik va qo'limgizga turniket uchun tashrif buyuruvchilarga mo'ljallangan alohida karta taqdim etildi. Shundan ham ayonki, bu korxonada kuchli tartib o'rnatilgan va metin intizom ustuvor qadriyat sifatida belgilangan. E'tiborimizni tortgani, zavodning barcha hududi bo'ylab muntazam videokuzatuv yo'lga qo'yilgan. Shundan bo'lsa kerak, taxminan 1300 nafar xodim mehnat qiladigan zavod hovlisida birorta odamni uchratmadik. Chunki ular o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan band.

Ichki tartibga rioya qilish rag'batlantiriladi

"UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyati komplayens xizmati rahbari Dilshod Saidmurodovga uchrashganimizda, u "O'zavtosanoat" AJning Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti ko'rsatmalari asosida

korxonada komplayens-nazorat xizmati to'liq joriy etilganidan so'ng intizom, ish sifati, samaradorlik va daromad oshgani hamda jamoaning obro'-e'tibori ham yuksalib borayotgani xususida so'zlab berdi.

— Komplayens-nazorat xizmati, bu — umuman korxona, tashkilot, alohida jamoa yoki har qanday darajadagi xodimning muayyan harakatlarning ichki yoki tashqi talablari (qonunlar, standartlar, normalar, qoidalar)ga muvofiqligidir, — dedi u. — Xizmatning mohiyati kompaniyaning ichki siyosati va tartiblariga rioya etishni rag'batlantiradi va tashkilot vakili yuqori professional va xloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qiladigan muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi. Masalan, ichki mehnat qoidalarini (korporativ axloq kodeksi yoki korporativ xulq-atvor kodeksi), qoida tariqasida, bu tashkilot faoliyatining deyarli barcha jihatiga ta'sir etadigan umumiy hujjat hisoblanadi. Unda axloqiy tamoyillar, xulq-atvor standartlari, tashkiliy ustuvorlik va xodimlarning javobgarligi haqida so'z boradi.

Binobarin, korxonada komplayens-nazorat xizmati xodimlari tomonidan ishchi-xizmatchilar bilan yakka suhbatlar o'tkazish muntazam amalga oshirib kelinadi. Har bir xodim bilan alohida suhbatning mohiyati esa nihoyatda muhim.

— Bizning vazifamiz jazolash emas, balki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday nomuvofiqlikning oldini olishga qaratilgan, — deya suhbatni davom ettirdi D. Saidmurodov. — Biz xavfning kelib chiqishiga omil bo'ladigan holatlarni o'rganamiz. Xavf yuzaga kelishining oldini olish asosiy vazifamiz. Bunda har bir korxona xodimi — rahbarlardan tortib oddiy ishchigacha komplayens xizmati a'zosi ekanli, har biri o'z zimmasidagi mas'uliyat yukini his qilishi lozimligi tushuntirilgan. To'g'ri, real xavfni oldindan aniqlash oson ish emas. Shu sababli har bir xodimga o'z faoliyatida qandaydir nomuvofiqlik xavfini his etganda xabar berish imkoniyati yaratilgani, xabar beruvchini ta'qibga olgan

yotganini anglash kerak. To'g'ri, jahon amaliyotida ham komplayens-nazorat tizimi qoidalarini sovg'alarni taqbiqlamaydi, lekin ularning miqdoriy qiymatini chegaralovchi tartibni joriy etadi.

— O'zingiz guvohi bo'lganingizdek, bizda ichki nazorat tizimi — komplayens tashkiliy tuzilmasi tom ma'noda ishlaymoqda. Maqsadimiz korxona faoliyatida o'zaro tanish-bilishchilik, urug'-aymoqchilik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan, — deydi korxonaning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori Kamila Bektemirova. — Bizda komplayens-nazorat xizmati ochiq, shaffof va halol ish yuritadi. Xodimlar bilan ular o'rtasida chegara yo'q. Chunki komplayens xizmati korxonaning jazolovchi, ta'qib etuvchi tarkibiy bo'linmasi emas, balki "O'zavtosanoat" AJning Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti bilan bir maqsad — xavf-xatarning oldini olish va ularni bartaraf etish ostida faoliyat ko'rsatuvchi xizmatdir. Har bir xodimimiz korrupsiya korxona obro'siga va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishini yaxshi biladi. Ana shu tushunchani xodimlar to'liq idrok qilayotgani esa komplayens-nazorat xizmati timsolidagi Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentining yutug'idir.

Korrupsiya omili nafaqat korxonaning yoki avtomobilsozlik sohasining, balki butun mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir etadi. Xorijiy investitsiya kompaniyalari uchun tom ma'nodagi komplayens-nazorat tizimining mavjudligi biznes hamkor tanlashning asosiy mezonlaridan hisoblanadi.

Shu bois korxonada "Komplayens xizmati haqida"gi alohida nizom ishlab chiqilgan. Unda huquqbuzarlik tomonga qadam tashlamaslik, terrorizmi moliyalashtirishga, manfaatlar to'qnashuvlariga qarshi sa'y-harakatlar va boshqa muhim omillardan keladigan xavf, ularning oldini olish va ularga sharoit yaratib bergan holatlarni bartaraf etish choralarini belgilab berilgan.

Suiiste'molmi yoki odamgarchilik?..

Aslida jamiyatda odamlar qon-qoniga singib ketgan ba'zi holatlar korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Ko'pincha buni korrupsiya yoki pora deb o'ylamaymiz ham. Gohida esa bunday holatni odamgarchilikka yo'yamiz.

Misol uchun, sinf rahbarining tug'ilgan kuniga ota-onalar qimmatbaho sovg'a-salomlar hadya etadi. Aytaylik, ayol o'qituvchiga tilla uzuk, zirak va hokazo.



Buni albatta, ba'zi o'qituvchilar qabul qiladi. Holbuki, bu — illat, korrupsiyaning boshlanishi. Vaqt kelib, berilgan sovg'a-ga hissa qo'shmagan yoki qurbi yetmagan ota-ona farzandi tahqirlashga uchrashi, aksincha qiymatli sovg'a ulashgan ota-ona farzandining esa adolatsiz takallul natijasida baholari oshirib qo'yilishi ehtimoldan xoli emas. Bu tizimning tubdan yemirilishi, ta'limning cho'kishi va savodsizlikning oshishi kabi oqibatlarni keltirib chiqarishi muqarrar.

Bunday holatlarni barcha tizimda kuzatish mumkin, albatta. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hamma tizimda halol, o'z kasbiga sodiq xodimlar juda ko'p. Ammo korrupsiyaga moyillik bor xodimlar ham uchrab turishi sir emas. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan va ma'lum yutuqlarga erishib ulgurgan komplayens-nazorat tizimining samarasi o'laroq, "DAN xodimga besh-to'rt so'm berib qutulib ketaman" yoki "hamma muammoning yechimi pul" kabi gaplar bugungi kunda o'z qiymatini yo'qotgan. Chunki barcha sohada inson omili kamayib, raqamlashtirish jarayonlariga jadal kirib boryapmiz. Buni quyidagi misollar ham yaqqol isbotlab turibdi: O'zbekiston xalqaro reyting ko'rsatkichlari bo'yicha 2018-yilda 180 davlat orasida 158-o'rinni egallagan bo'lsa,



2019-yilda 153, 2020-yili — 146, 2021-yili — 140 va 2022-yilda 126-o'rinni egallagan. Bu yurtimizda korrupsiyadek xatari va xavfli illatdan qutulish uchun katta sa'y-harakatlar olib borilayotganini ko'rsatadi. Xatarlarni tasniflaydigan bo'lsak, ular, asosan, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy, ilmiy va texnik, xalqaro, siyosiy, psixologik, texnologik, xomashyo ko'rinishida, aql-idrok orqali, axborotlar asosidagi yo'nalishlarda kuzatilishi aniqlangan.

Ko'rinib turibdiki, bu illat shunday chuqur ilidiz otganki, hatto birorta sohani chetlab o'tmagan. Demak, unga qarshi kurash ko'lamlari oshirishda komplayens-nazorat tizimi qulay va samarali ekanini tajribalarda sinovdan o'tmoqda.

Maqsad — korxonamizni "korrupsiyasiz soha" darajasiga olib chiqish

Bu haqda "UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyati rahbari Saidazim G'ulomov fikrlariga bir quloq tutaylik:

— Zavodimizda birinchi dvigatel 2011-yilda ishlab chiqarilgan bo'lsa, asosiy ish faoliyatimiz 2012-yilda boshlangan. Biz dastlab, "Spark" rusumli, keyinchalik "O'zavtosanoat" AJning bevosita qo'llab-quvvatlovi ostida "Lacetti", "Cobalt", "Treker" avtomobillarining dvigatellarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganimiz. O'tgan yil natijasi bo'yicha avtomobilsozlik sohasiga 228 mingta dvigatel yetkazib berdik. Bu qariyb 250 mln. dollarni tashkil etdi. Bu yilgi mo'ljalimiz — 300 mingta dvigatel ishlab chiqarish.

Shu o'rinda qanday qilib bu hajmga chiqish mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. O'tgan yili dekabr oyida yangi dvigatel ishlab chiqarish liniyasini ishga tushirdik. Yig'ish, mexanik ishlov berish, quyish sexlarida

bloklarni katta yuqori bosimda ishlab chiqaryapmiz. Bu nafaqat o'zbekistonlik, balki MDH iste'molchilari uchun juda yangi texnologiya hisoblanadi. Hozirgi vaqtda esa detallarni 80 tonnalik presslar yordamida ishlab chiqarish sexini ishga tushirish ustida ishlayapmiz va bu loyiha tez kunlarda foydalanishga topshiriladi. Loyiha amalga oshgach, keyingi va 2025-yildan boshlab ichki va tashqi bozor iste'molchilariga qariyb 400 mln. dollarlik mahsulot yetkazib beramiz.

Hozirgi kunda korxonamizda 1300 nafar ishchi-mutaxassis mehnat qilayotgan bo'lsa, kelgusi yil yana 100 ta yangi ish o'mi yaratishni rejalashtirganimiz. Chunki yangi quyuv sexining ishga tushirilishi bizga ushbu xayrli vazifani amalga oshirish imkoniyatini beradi. Hozirda zavodimiz hududida qurilish yumushlari jadal olib borilayotir.

— Bu muvaffaqiyatlar zamirida komplayens-nazorat xizmati yo'lga qo'yilganining ahamiyati katta bo'lsa kerak. Shunday emasmi? — so'raymiz S. G'ulomovdan.

— Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens-nazorat xizmatini har bir korxona va aksiyadorlik jamiyatida tatbiq etish juda muhim, — deydi u. — Korxonamizda bu tizim 2020-yilda tashkil qilindi. Tizim rahbari to'g'ridan-to'g'ri Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi. Ularning

ish ko'lami nihoyatda keng bo'lib, xomashyo va ehtiyot qismlarni sotib olish jarayonidan boshlab, davlat xaridlari, moliyaviy xavflarni aniqlash, ularning oldini olish, logistika va boshqa sohalar bo'yicha ish olib boradi. Muammolarni har tomonlama o'rganib chiqib, o'z xulosalarini beradi. Chunki xavf oldindan aniqlanmasa va barvaqt bartaraf etilmasa, pirovardida korxona va umuman, tizim uchun juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishi tayin.

Komplayens-nazorat xizmati erishilgan yutuqlar, tejab qilingan mablag'lar va korxonamizning moliyaviy ko'rsatkichlarida o'z aksini topgan bo'lsa, faoliyatimizdagi ochiqlik va shaffoflik jamoadagi muhit yaxshilanishiga olib keldi. Buning natijasida jamoaviy hamijhatlik mustahkamlandi, ishga, kasbga e'tibor va ishtiyiq oshdi.

— Korxonada komplayens-nazorat xizmati samaralari nimalarda ko'rinnmoqda?

— Misol uchun, korxonamizda manfaatlar to'qnashuvi bo'lmagani uchun komplayens xizmati vakillari ishchi-xodimlar bilan maxsus so'rovnomadagi savollar asosida suhbat o'tkazadi. Har bir ishchiga "Manfaatlar to'qnashuvi yo'qmi?" degan savol qo'yiladi. Bu nima degani? Deylik, o'z faoliyatim misolida aytadigan bo'lsam, bizga xizmat ko'rsatayotgan korxonalar bor. Bunda qarindosh-urug'chilik bo'lmagligi va boshqa jihatlar e'tiborga olinadi. Bunday tekshiruv albatta zarur. Va har bir ishchi shu jihatdan o'rganib chiqiladi. Shakllantirilgan hujjat esa tegishli bo'lim boshlig'i tomonidan "manfaatlar to'qnashuvi kuzatilmagan"ligi tasdiq'li sifatida imzolalanadi. Komplayens xizmati barcha hujjatni to'liq tekshirib, oxirida o'z xulosasini aytadi.

— Korxona mahsulotini qayerga sotadi va o'sha hamkorlikdagi tashkilotlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga duch kelmayapsizlarmi?

— Bizning asosiy hamkorimiz "UzAuto Motors" kompaniyasi bo'lib, mahsulotimizning 99 foizini shu korxonaga yetkazib beramiz. Lekin hamkor tashkilotlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelsa, komplayens xizmati tomonidan ushbu holat ham o'rganiladi. Shu sohaga aloqador rahbar va mutaxassislar o'rtasidagi munosabatlarni qonunchilik talablari asosida ko'rib chiqiladi. Yangi shartnomalar tuzilayotgan paytda davlat xaridlari bo'yicha ikki-uchta korxona qatnashayotgan bo'lsa, ular orasida bir-biri bilan xufiyona kelishuv bo'lishi mumkin. Chunki hozirgi kunda 2-3 ta korxona ochib olib, sun'iy ravishda tender qatnashchilari sonini oshirib, go'yo bir-biri bilan "raqobatlashayotganlar" paydo bo'lgani ham sir emas. Aslida ular bitta korxona yoki shaxs manfaatida harakat qilib, o'zlarini alohida qo'jalik subyekti sifatida ko'rsatishadi. Ana shunday g'ayrigonuniy harakatlarning oldini olishda, albatta, komplayens xizmati o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Ya'ni komplayens-nazorat xizmati xodimlari bu kabi holatlarni sinchiklab o'rganib, oldindan yur berishi mumkin bo'lgan xavflar haqida tavsiyalar beradi. Hozirgi kunda Asaka shahridagi yirik zavodda avtomobilgariga sifatl dvigatellar ishlab chiqarayotganimizning boisi korxonamizda manfaatlar to'qnashuvi bilan murosasiz kurashilayotgani, har qanday korrupsion holatga baralla "yo'q" deya olayotganimiz va komplayens xizmati yo'lga qo'yilgani tufaylidir.

"UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizda "O'zavtosanoat" AJ ko'rsatmalari asosida birinchiildan bo'lib, komplayens xizmatini joriy etib, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilgan, korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borayotgan ilg'or mehnat jamoalaridan biridir. Istagimiz, shunday aksiyadorlik jamiyatlari sagi kengayaversin. Zero, o'z oldiga katta maqsadlarni qo'yib, rivojlanish yo'lidan dadil qadam tashlayotgan yangi O'zbekistonning istiqboli ana shunday halollik yo'lini tanlagan jamoalar bilan yanada nuraftashon bo'ladi.

Faxriddin BOZOROV
("Xalq so'zi").

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullig'a qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.45 Topshirildi — 23.40

1 2 3 4 5 6